



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI**

2024-yil 21-oktabr

521-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining
Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasiga G‘uzor tumani “Toshguzar”
mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan “Elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi
gaz-porshenli elektr stansiyalari va avtomobillarga gaz to‘ldirish kompressor
shoxobchalari”ni qurish uchun doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni
ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasining 2024-yil 12-iyuldagi 01/18-1755-son buyurtma xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining ijobiy xulosasi, hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashining kelishuvi, vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari va kelishuvlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasiga G‘uzor tumani “Toshguzar” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan, qishloq xo‘jaligiga foydalanilmaydigan 2,0 gektar boshqa yer maydoni “Elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi gaz-porshenli elektr stansiyalari va avtomobillarga gaz to‘ldirish kompressor shoxobchalari” qurish uchun doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali avtomatik ravishda shakllantirilgan elektron xarita ushbu qarorga ilova qilinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G‘.Hamroyev):

ushbu qaror hamda yer maydoni bo‘yicha tayyorlangan hujjatlar yig‘majildi, vakolatli tashkilotlar xulosalari va kelishuvi bo‘yicha materiallarni bir ish kuni ichida elektron tizimdan yuklab olib, ma’lumotlarni umumlashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga kadastr pasportini rasmiylashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali ikki ish kuni davomida davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

5. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi hamda “O‘zGASHKLITI” DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda uch ish kuni davomida yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilasin.

6. Ushbu yer uchastkasining chegaralari O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi tomonidan naturada (joyning o‘zida) belgilanguniga hamda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlaydigan hujjatlar berilguniga qadar mazkur yer uchastkasiga egalik qilish va undan foydalanishga kirishish taqiqlansin.

7. Ushbu yer uchastkasida qurilish ishlarini boshlashga yoki davlat va jamoat ehtiyojlari uchun belgilangan boshqa maqsadlarda foydalanishga faqat ushbu yer uchastkasiga bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan keyin yo‘l qo‘yiladi.

8. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi bilan birgalikda ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini monitoring qilib borsin.

9. Ajratilgan yer maydonidan ikki yil muddatda foydalanilmaganda mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko‘ra bekor qilinishi belgilab qo‘yilsin.

10. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining “gov.uz/oz/qashqadaryo” rasmiy veb-saytida e‘lon qilinsin.

11. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov